

## Loyiha oldi va loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun

### 15-sonli SHARTNOMA

Samarqand shahri.

«18» may 2022 yil.

**Samarqand viloyati hokimligi Injiniring kompaniyasi** (Keyingi o'rinnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) direktori A.Ilmuratov bir tomonidan, «Ta'mirloyiha» MCHJ (keyingi o'rinnlarda "Bajaruvchi" deb yuritiladi) direktori D.B.Kodirov ikkinchi tomondan, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan quyidagi shartnomani tuzdilar:

#### 1. MODDA

Shartnomma mavzusi va tuzilishi.

1.1. Buyurtmachi ko'rsatma beradi va "Bajaruvchi" Samarqand viloyati, "Самарканд вилояти Нуробод туманидаги "Агрон" МФЙ "Агрон" кишлогида ичимлик сув тармоги тортиш, сув иншооти курилиши ва реконструкция килиши" ob'yekti uchun loyiha oldi va loyiha-smeta hujjatlarini (ART, ekologiya, topo-xarita, gidrogeoligaya, va ishchi loyiha) ni amalga oshirish ishlarini o'z zimmasiga oladi: "Korxonalar va bino va inshootlarning kapital qurilishi uchun loyiha hujjatlarini tuzish, ishlab chiqish, tasdiqlash tartibi" (SHNQ) 1.03.01-08 yil va boshqa meyoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

1.2. O'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 37-bo'limi, O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik subektlari faoliyatining huquqiy asoslari to'g'risida"gi qonuni va 1998 yil 29 iyundagi 261-tonli qarorini qo'llaydilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 apreldagi PQ-847-son «Loyiha-tadqiqot tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda 2019 yil 27 fevraldag'i F-5445-son «2019 yilda vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlari to'g'risida»gi farmoyishiga asosan "Ob'yektlarni shartnomaviy joriy narxlarda qurish bo'yicha loyiha-qidiruv ishlari harajatlari tartibi to'g'risidagi" nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 9 sentyabrda 3180 raqami bilan ro'yxatga olingan va ushbu shartnomma, bajaruvchi ushbu ishlarni, amaldagi qurilish kodekslariga va qurilish ishlari uchun loyiha hujjatlarini tuzish, kelishish va tasdiqlash tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq bajaradi va tugatadi.

1.3. Ushbu shartnomaning ajralmas qismi quyidagilardan iborat:

- Loyiha-qidiruv ishlari smetasi;
- Loyiha ishlarning taqvim jadvali;

1.4. Belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha topshirig'i ishchi loyihani ishlab chiqish uchun asosdir.

1.5. Alovida bosqichlarni loyihalash ishlarning nomi va muddati ishchi loyihani berish uchun taqvim jadvali bilan belgilanadi.

1.6. Shartnomma beruvchi tomonlardan biri tomonidan ishlab chiqilgan va shartnomma loyihasi imzolagan taraf boshqa tomoniga yuboriladi. Shartnomma loyihasini kontengentga yuborish shartnomma tuzish taklifidir.

1.7. Agar kelishuv loyihasi bo'yicha kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, tomonlar 10 kun ichida ularni hal qilish choralarini ko'radilar.

1.8. Ushbu shartnomaga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalar shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan qo'shimcha bitimda batafsil bayon etilgan.

1.9. Ushbu shartnomaning shartlari ikkala tomon uchun ham majburiydir va ularning roziligi bilan o'zgartilishi mumkin.

#### 2. MODDA

Tomonlarning majburiyatları.

2.1. Bajaruvchining majburiyatları:

2.1.1. Tasdiqlangan loyiha topshirig'iga, buyurtmachining qurilish normalari va qoidalari va ushbu shartnomaning shartlarida belgilangan tartibda taqdim etilgan dastlabki qarorlarni berish uchun taqvim jadvaliga muvofiq ishlarni bajarish.

2.1.2. Shartnomma imzolangandan va qurilish normalari va qoidalari, shuningdek ushbu shartnomma shartlari bilan belgilangan topshiriq uchun dastlabki materiallarni olgandan keyin ishchi loyihani ishlab chiqadi.

2.1.3. Buyurtma berilgandan keyin 5 kun ichida buyurtmachiga texnik shartlarni olish uchun ma'lumotlarni taqdim etish kerak.

2.1.4. Buyurtmachi yozma ravishda taqdim etilgan iltimosiga binoan loyiha hujjatlarini ishlab chiqishni to'xtatib turadi va davom ettiradi.

2.1.5. Loyihaviy-smeta hujjatlarini barcha manfaatdor tashkilotlar bilan (Arxitektura Bosh boshqarmasi, DSENM, gaz, elektr va boshqalar), shu qatorda davlat nazorati organlari bilan qo'shimcha talablar taqdim etilgandan so'ng muvoifiqlashiriladi.

2.1.6. Ishchi loyihani ishlab chiqishda buyurtmachining davlat nazorati, vakolatli orgnalarining muloxazalarini inobaiga olish va ishchi loyihani ishlab chiqishda o'z vaqtida kerakli o'zgartirishlarni kiritish.

- 2.1.7. Bajaruvchining aybi tufayli ishchi loyihasini ishlab chiqishda xatolar va noto‘g‘ri hisob-kitoblar aniqlangan taqdirda loyihalash hujjatlaridagi kamchiliklarni o‘zmablag‘lari xisobidan bajardi.
- 2.1.8. Belgilangan vaqtida ushbu shartnomaning kalendar jadvaliga binoan buyurtmachiga ekspertiza xulosasi uchun loyiha-smeta hujjatlarini taqdim etish.
- 2.1.9. Ishlab chiqilayotgan loyiha bo‘yicha sharxlar bilan mahalliy ekspert xulosalarini berishda, bajaruvchi tegishli tuzatishlar va tuzatishlar kiritadi (sharxlarni bekor qiladi) va yakuniy davlat ekspert xulosasi olish uchun loyiha-smeta xujjatlarini qayta taqdim etish.
- 2.1.10. Buyurtmachi davlat nazorati organlari tomonidan amalga oshirilgan barcha tuzatishlar va tuzatishlar va ishchi loyihaning materiallarga davlat ekspertizasi o‘tkazilgandan so‘ng bajaruvchi tugallangan loyiha-smeta hujjatlarini 3 nusxada (elektron versiyasini) buyurtmachiga belgilangan tartibda taqdim etadi.
- 2.1.11. Bajaruvchi “Buyurtmachidan” yozma so‘rov olgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida yozma javob yuborish.
- 2.1.12. QMQ 1.03.07.96 ga muvofiq (dala nazorati kalendar jadvaliga binoan) ob‘yektda dala nazorati bilan ta‘mirlash.
- 2.1.13. Buyurtmachining birinchi so‘roviga binoan tegishli mutaxassislarni ob‘yektga yuborish va ish paytida loyiha topshirig‘i ishlarida yuzaga kelgan muammolarni hal qilish.
- 2.1.14. Bajaruvchi shartnomasi bo‘yicha bajarilgan ishlarni buyurtmachining rozilgisiz uchinchi shaxslarga topshrishga xaqli emas.
- 2.2. Bajaruvchi quyidagi huquqlarga ega:
- 2.2.1. Buyurtmachining oldindan yozma rozilgisiz ishlarning bir qismini (loyihalashtirish va ilmiy-tadqiqot ishlarining maxsus turlari loyhalarni amalga oshirishda turli xil maslahat yordami va boshqalar) bajarish uchun xo‘jaliklararo subpduratnlarni tuzish. Subpdurat shartnomalarni tuzish bajaruvchi ushbu shartnomasi bo‘yicha o‘ziga yuklatilgan javobgarlikdan ozod qilmaydi.
- 2.2.2. Buyurtmachining aybi tufayli to‘lovlar kechiktirilgan bo‘lsa va loyihalash uchun manbalni materiallar taqdimi etilmagan bo‘lsa mutaxassislarning mavjud ish yukini hisobga olgan xolda loyihami qarorlarni bosqichma-bosqich berish jadvalini ko‘rib chiqish, ishchi loyihami ishlab chiqishning yangi muddatini belgilash va buyurtmachi bilan kelishib olish.
- 2.2.3. Shartnomasi majburiyatlarini muddatidan oldin bajarish.
- 2.3. Buyurtmachining majburiyatları:
- 2.3.1. Loyihalashtirish boshlanishidan oldin u bajaruvchi tomonidan hisoblangan yuklarni o‘z vaqtida yetkazib berish sharti bilan loyihami tuzish uchun zarur bo‘lgan dastlabki ma’lumotlarni beradi.
- 2.3.2. Ishchi loyihami bajaruvchidan olingan kundan boshlab 10 ish kuni ichida ishni qabul qilish va qabul qilish dalolatnomasiga imzo chekish yoki yozma izohlar bilan qaytarib berishni ko‘rib chiqish.
- 2.3.3. Bajaruvchiga shartnomasi ko‘zda tutilgan hajm va shartlarda ishlarni bajarshda yordam berish.
- 2.3.4. Bajaruvchining ishining sifatini kuzatib borish kamchiliklar to‘g‘risida o‘z vaqtida xabar va tuzatishni talab qilish.
- 2.3.5. Ishchi loyihami bajaruvchidan olingan kundan boshlab 15kundan kechiktirmay davlat ekspertizasiga topshirish va ekspert xulosasini olish. Buyurtmachining aybi bilan davlat ekspertizasi uchun taqdim etilmagan ishchi loyixasi bajaruvchiga tugatish sertifikati imzolangandan keyin 3 oy o‘tkach yakuniy to‘lovnii talab qilish xuquqini beradi.
- 2.3.6. Maxalliy ekspert xulosalarini ishchi loyihaning sharxlarini bilan berganda u davlat ekspertizasi sharxlarini tuzatish uchun ishchi loyihami bajaruvchiga yuboradi.
- 2.3.7. Bajaruvchining tuzatilgan va tuzatilgan ishchi loyihami olgandan so‘ng uni yakuniy ekspert xulosasi uchun davlat ekspertizasiga topshirish.
- 2.3.8. Buyurtmachi Bajaruvchining yozma so‘rov olgan kundan boshlab 5 ish kuni ichida yozma javob yuborish.
- 2.3.9. Olingan ishchi loyihadan shartnomada ko‘zda tutilgan maqsadlarda foydalanish.
- 2.4. Bajaruvchi tuzilgan shartnomaga asosan, loyihaning tuzatilgan va tuzatilgan ishchi loyihami olgandan so‘ng uni yakuniy ekspert xulosasi uchun davlat ekspertizasiga topshirish.
- 2.4.1. Bajaruvchi, loyihalangan ob‘yektda xafatasiga 3 marotaba mualliflik nazorati olib boradi.
- 2.4.2. Bajaruvchi, shartnomasi rasmiylashtirilgan kundan boshlab 16 kun muddatda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqadi va davlar ekspertizasidan o‘tkazib, ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlaridan buyurtmachiga 3 nusxada taqdim qiladi.

### 3 MODDA

Shartnomaning qiymati va ishlarni moliyalashtirish shartlari.

- 3.1. Mazkur shartnomasi bo‘yicha “Loyihachi” tomonidan bajariladigan ishlarni Etender.uzex.uz partalidagi elektron e'londagi tanlov natijasida aniqlangan va xarid komissiyasining (**2022 yil «12» maydag‘i Xarid komissiyasining 20593-sonli bayonnomasiga asosan Lot № 78029**) bilan tasdiqlangan loyiha oldi va loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash ishlarning qiymati, mualliflik nazorati bilan birga smeta bo‘yicha **197 505 000**) so‘mni QQS bilan birga tashkil etadi.

3.2. Buyurtmachi loyiha-qidiruv ishlari uchun shartnomaning umumiy qiymatining 30 foizi miqdorida avans 2022 yil manzilli dastur tasdiqlanganidan so'ng, to'lash majburiyatini oladi, ushbu ob'yekt bo'yicha shartnoma G'aznachilik boshqarmasidan o'tkazilgandan va byudjetdan mablag' kelib tushgandan keyin, amalda bajarilgan loyihalash ishlari uchun qolgan summa bajarilgan ishlar dalolatnomalariga muvofiq to'lanadi. Byudjetdan mablag' ajratish, yakuniy to'lov davlat ekspertizasining ijobiy xulosasini olgandan keyin amalga oshriladi.

3.3. Shartnoma bo'yicha ish qiymati quyidagi hollarda o'zgartirish mumkin:

- Loyiha-smeta hujjatlari yoki unga kiritilgan o'zgartirishlar belgilangan tartibda qayta tasdiqlanganda;
- buyurtmachining tashabbusi bilan ish to'xtatilganda;
- shartnoma tomonlarning kelishuviga binoan.

#### 4-MODDA

Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi.

4.1. Ishchi loyihaning ishlab chiqilgan bo'limlarini qabul qilish va baholash loyihalash topshirig'i talablariga va jadval shartlariga muvofiq amalga oshriladi.

4.2. Ish to'liq hajmda tugagandan so'ng, "Bajaruvchi" "Buyurtmachi" ga barcha schyot-fakturalar va bajarilgan ishlar dalolatnomalari ko'rsatilgan holda uch nusxada (shu jumladan: chop etilgan, elektron variantda) ishchi loyihaning to'plamini yuboradi.

4.3. Ishchi loyihani qabul qilish to'g'risidagi dalolatnoma olingan kundan boshlab 10 ish kuni ichida amaldagi narxlarda smeta bilan to'liq hajmda

- loyihani loyiha bo'limida qabul qiladi;
- taqdim etilgan ishlarni bajarish dalolatnomaga imzo qo'yadi;
- ushbu shartnoma shartlariga muvofiq to'laydi;
- Bajaruvchi bajarilgan ishning dalolatnomasini yoki sabablarini ko'rsatgan holda ishni qabul qilishdan bosh tortish to'g'risida yuboradi.

4.4. Bajarilishi zarur bo'lganligi sababli bajarilgan ishlarni qabul qilish asosli ravishda rad etilgan taqdirda, "Buyurtmachi" kelishilgan vaqt ichida ikki tomonlama dalolatnoma tuzadi, unda zarur yaxshilanishlarning asosli ro'yxati va ularni bajarish muddatlari ko'rsatilgan va tasdiqlash uchun "Bajaruvchi" ga yuboriladi.

4.5. Agar ishchi loyihani ishlab chiqish jarayonida sabliy natija paydo bo'lishining muqarrarligi va kelgusida loyihalash jarayonining maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 3 ish kuni ichida uning to'xtabib turishi to'g'risida xabardor qilishlari va 5 ish kuni ichida ishchi loyihasini ishlab chiqishni davom ettirishning maqsadga muvofiq yoki yo'nalishlarini ko'rib chiqishlari shart.

#### 5 MODDA

Tomonlarning javobgarligi.

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik uchun, bajruvchi va buyurtmachi, boshqa holatlar uchun yetkazilgan zararni qoplamaslik holatlaridan tashqari, barcha holatlarda, O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagagi 670-1-sonli qonunga muvofiq javobgar bo'ladilar. "Tadbirkorlik sub'yeqtisi faoliyatining shartnomaviy huquqiy asoslari to'g'risida" va amaldagi qonun hujjalarda nazarda tutilgan boshqa me'yoriy hujjalarni.

5.2. Loyiha-smeta hujjatlarini o'z vaqtida tayyorlash uchun bajaruvchi buyurmachiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5% miqdorida jarima to'laydi, ammo jarimanining umumiy miqdori bajarilmagan ish qiymatining 50 foizidan oshmaslik kerak.

5.3. Hisob-fakturni va sertifikatlar bo'yicha loyihalash ishlarining 100% tayyorligi va yetkazib berilganligi vaqtida to'lanmagan taqdirda. "Buyurtmachi" kechiktirilgan har bir kun uchun bajarilgan ishlar qiymatining 0,4% miqdorida jarima to'laydi, ammo kechiktirilgan to'lov miqdorining 50%dan oshmaydi.

5.4. Ushbu shartnomaning 3-bo'lim 3-bandida nazarda tutilgan shartnomaning umumiy miqdori, ob'yekt bo'yicha manzilli dastur tasdiqlanganidan so'ng shartnomaga ko'shimcha kelishuv asosida o'zgartiriladi.

5.6. Mazkur shartnoma bo'yicha barcha to'lovlar byudjetdan tegishli maqsadlar uchun mablag'lar ajratilgandan so'ng moliyalashtiriladi va "Buyurtmachi" byudjetdan mablag'larning o'z vaqtida ajratilmasligi bilan bog'liq kechiqish uchun javobgar hisoblanmaydi.

5.7. Agar bajarilgan ishda (bosqichlarda) nuqsonlar aniqlansa, bajaruvchi ularni bepul bartarf etishga majburdir. Agar bajarilgan ishlari yoki ko'rsatilgan xizmatlar loyihalash topshirig'i, texnik shartlar bo'yicha standartlarga javob bermasa, buyurtmachi ishlari, xizmatlarni qabul qilishdan va to'lashdan bosh tortishga va bajaruvchidan ish, xizmatlar narxining 25 foizgacha jarima undirishga haqqi yo'q ((sifati yo'qolgan jismoniy hajmlar), ishlari va hk), agar ish, xizmatlar allaqachon to'langan bo'lsa, belgilangan tartibda to'langan summalarining qaytarilishini talab qilish, ishlari, sifatsiz xizmatlar uchun jarima bajaruvchining roziligidan undirib olinadi. Jarimani hisobdan chiqarish uchun to'lov so'rovi bank muassalariga ish va xizmatlarning sifatsizligi to'g'risida dalolatnoma tuzilgandan keyin 10 kundan kechiktirmay taqdim etiladi. Agar o'n kunlik muddatni buzgan holda jarimani hisobdan chiqarish uchun to'lov so'rovi yuborilgan bo'lsa, jarima belgilangan tartibda amalga oshriladi.

5.8. Shartnoma manfaatdor tomon tomonidan shartnoma muvofiq mulkiy va nomulkiy xususiyatga ega bo'lgan barcha masalalar hal etilgandan keyingina tugatilishi mumkin, bu haqda boshqa tomonni bir oylik yozma ravishda ogohlantiradi.

5.9. Ushbu kelishuv bilan bog'liq barcha kelishmovchiliklar, muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Agar kelishuvga erishilmasa, nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan hal etiladi.

5.10. Agarda, bajaruvchi (loyihachi) tomonidan ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlaridagi ish turlari va xajmlari o'rtaсидаги аниqlangan tafovut bo'yicha vujudga kelgan moliyaviy zararlar, bajaruvchi (loyihachi) tomonidan qoplab beriladi.

5.11. Bajaruvchi, tanlov bayonnomasiga asosan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun berilgan taklif kunidan kechiktirilgan har bir kun uchun 2% miqdorida buyurtmachiga jarima to'laydi, ammo jarimaning umumiyligi miqdori shartnoma qiymatining 50%dan oshmasligi kerak.

## 6 MODDA

Shartnoma muddati.

6.1. Ushbu shartnoma tomonlar imzolagan vaqtidan boshlab va g'aznchilik bo'limida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi. Shartnoma bitta moliyaviy yil uchun, ya'ni 2022 yil 31 dekbrgacha amal qiladi.

6.2. Shartnomaning amal qilish muddati uning bajarilishi uchun taraflarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

6.3. Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ulardan biri buyurtmachida qoladi, biri bajaruvchiga beriladi va g'aznchilikdan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkaziladi.

## 7 MODDA

Qo'shimcha shartlar.

7.1. Tomonlar o'zaro bitim asosida bekor qilishga haqlidirlar.

7.2. Qayta ro'yxatdan o'tkazish, qayta tashkil etish yoki buyurtmachi yoki bajaruvchining maqomida boshqa o'zgarishlar yuzaga kelgan taqdirda, ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar ushbu qayta ro'yxatdan o'tkazish, qayta tashkil etish natijasida hosil bo'lgan yuridik shaxsga o'tkazadi.

## 8 MODDA

Fors-major holatlari.

8.1. Tomonlar ushbu shartnomada qabul qilingan majburiatlarni qisman yoki to'liq bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin, agar bu fors-major holatlari (tabbiy hodisalar, yong'in, toshqin, zilzila, tabbiy ofat, falokat, portlashlar va boshqa fors major holatlari) bo'lsa, ushbu holatlар shartnoma bajarilishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

## 9 MODDA

Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari.

9.1. Yuridik manzil yoki xizmat ko'rsatuvchi bank o'zgargan taqdirda, tomonlar uch kun ichida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

### Bajaruvchi:

**Nomi:** « Ta'mirloyiha » MCHJ

**Manzil:** Samarqand sh. Narpay kuchasi 22 uy

**h/r:** 20208000500307748001

**Bank nomi:** AKB «IPOTEKA BANK»

Samarqand sh.

**MFO:** 00317

**STIR:** 200714814

**OKED:** 71110

**QQS to'lovchi kodi:** 318010042865

**Tel (0366):** 234-24-88

**Direktor**

**D.B.Kodirov**



**Nom:** Moliya vazirligi Gaznachiligi, Samarqand viloyat g'aznachilik boshkarmasi

**X/R:** 23402000300100001010

**Bank nomi:** Markaziy bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi

**Manzil:** Sam shaxar Kuksaroy maydoni №1

**Stir (INN):** 201 122 919

**MFO:** 00 014

**OKONX:** 97 160

**Tel:** 233-68-53, 231-11-52

### Buyurtmachi:

**Nomi:** Samarqand viloyat hokimligi

Injiniring kompaniyasi.

**Manzili:** Samarqand sh. Ko'ksaroy maydoni 2 uy

**Bank nomi:** Markaziy bank Toshkent shaxar

Bosh boshkarmasi XKKM

**Sh/R:** 301121860184017063201018024

**MFO:** 00014

**STIR:** 201212655

**IFUT:** 70220

**Tel:** 66-231-10-93; 66-235-47-97

**Direktor**

**A.Ilmuratov**

**Vurist**

**B.Xolbekov**





“ТАСДИҚЛАЙМАН”  
Самарқанд вилоят ҳокимлиги  
Инженеринг компанияси  
директори  
А.Илмуратов  
« » 2022 йил

Самарқанд вил. Нуробод т. "Ағрон" МФЙ "Ағрон" қ-ғида ичимлик сув тармоғи тортиш, сув иншооти қурилиши ва рек-ция қилиш объекти бўйича танлов ўтказиш бўйича комиссия йиғилиши

**БАЁНИ №**

Самарқанд ш.

17 май 2022 йил

**Комиссия раиси** - К.Хамидов

-Директор ўринбосари

**Комиссия котиби:** - Ш.Махматов

- Компания “Молиялаштириш ва маркетинг ва манзиллий дастурларни тайёрлаш” бўлими бош мутахассиси

**Комиссия аъзолари:**

- |              |  |
|--------------|--|
| · С.Курбанов | - Компания бош мухандиси   |
| · А.Сафаров  | - “Лойиҳаларни бошқариш ва қурилишни техник кузатиш” бўлими бошлиғи;                 |
| · А.Қодиров  | -“Бирламчи рухсат берувчи, лойиха ва танлов ҳужжатларини тайёрлаш” бўлими бошлиғи;   |
| · Ф.Шакаров  | - “Лойиҳаларни бошқариш ва қурилишни техник кузатиш” бўлими бош мутахассиси;         |
| · И.Холбоев  | -“Молиялаштириш ва маркетинг ва манзиллий дастурларни тайёрлаш” бўлими бошлиғи;      |
| · Ж.Қиличев  | - “Танлов савдоларини ташкил этиш ва хўжалик шартнома муносабатлари” бўлими бошлиғи; |

**КУН ТАРТИБИ:**

Самарқанд вил. Нуробод т. "Ағрон" МФЙ "Ағрон" қ-ғида ичимлик сув тармоғи тортиш, сув иншооти қурилиши ва рек-ция қилиш объектининг лойиҳа олди ва лойиҳа смета ҳужжатларини тайёрлаш бўйича

(К.Хамидов, С.Курбанов, А.Сафаров, А.Қодиров, Ф.Шакаров, И.Холбоев, Ж.Қиличев)

Компания томонидан 2022 йил 04 майда Ўзбекистон Республикаси Товар ва хом-ашё биржасининг (<https://etender.uzex.uz>) электрон порталига Самарқанд вил. Нуробод т. "Ағрон" МФЙ "Ағрон" қ-ғида ичимлик сув тармоғи тортиш, сув иншооти қурилиши ва рек-ция қилиш объектининг лойиҳа олди ва лойиҳа смета ҳужжатларини тайёрлаш №78029 -лот рақами билан эълон жойлаштирилди. Мазкур лот бўйича 2022 йил 12 майдаги энг яхши таклифларни танлаш савдосини ўтказиш бўйича давлат харидлари

комиссиясининг электрон портали орқали шаклланган Самарқанд вил. Нуробод т. "Ағрон" МФЙ "Ағрон" қ-ғида ичимлик сув тармоғи торғиши, сув иншооти қурилиши ва рек-ция қилиш обьектининг лойиҳа олди ва лойиҳа смета ҳужжатларини тайёрлаш баённомасига асосан эълон якунига кўра комиссия аъзолари томонидан "ТА'MIRLOYIHA" МЧЖ ғолиб деб топилганини инобатга олиб,

### ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги "Давлат харидлари тўғрисида"ги 684-сонли Конунининг 62-моддаси 3-бандинга асосан комиссия баённомаси давлат харидлари электрон тизимиға мухокама қилиш учун икки иш қунига жойлаштирилди. Икки иш қуни давомида давлат харидлари электрон тизимиға жойлаштирилган баённома бўйича ҳеч қандай эътиrozлар ёки қўшимча таклифлар келиб тушмаганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

2. Компания "Танлов савдоларини ташкил этиш ва хўжалик шартнома муносабатлари" бўлими (Ж.Қиличев) юқоридагилардан келиб чиқиб, комиссия аъзоларининг 2022 йил 12 майдаги электрон баённомасига асосан ғолиб "ТА'MIRLOYIHA" МЧЖ билан қонунчиликда ўрнатилган тартибда шартнома тузилсин.

3. Компания "Бирламчи рухсат берувчи, лойиҳа ва танлов ҳужжатларини тайёрлаш" бўлими (А.Қодиров) обьектнинг лойиҳа олди ва лойиҳа-смета ҳужжатларини сифат даражасида топширилишини назорат қилинсин.

### Йиғилиш баёни тўғри тузилган деб ҳисоблаб комиссия аъзолари:


Хамидов К.



Курбонов С.



Шакаров Ф.



Сафаров А.



Холбоев И.



Қиличев Ж.



Қодиров А.



Комиссия котиби: Ш.Махматов

